



*Tadjixon SABITOVA,*

*Alfraganus universiteti professori v.b., f.f.n*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi, DSc*

*E-mail: t.sabitova@mail.ru*

*O‘zDJTU professori D.Sarimsakova taqrizi asosida*

### “QIRONXON” DOSTONINING POETIK TUZILISHI

Annotatsiya

“Qironxon” dostonlari og‘zaki xalq adabiyoti yodgorliklaridan biri bo‘lib, o‘z davrining tarixiy, madaniy va ijtimoiy haqiqatlarini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot dostonning poetik tuzilishini, jumladan ritmik tuzilma, band va qatorlar tartibi, epitetlar, takrorlar, alliteratsiya va boshqa badiiy vositalardan foydalanishni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda syujet chizig‘i va poetik vositalar o‘zaro ta‘sir, muallifning badiiy mahorati va og‘zaki hikoya an‘anasi xususiyatlari o‘rganiladi. Natijada, dostonning poetik tuzilishi uning hissiy ifodaliligi, dramatik ta‘sirini kuchaytirishi va milliy identifikatsiyani shakllantirishda muhim rol o‘ynashi aniqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Doston, poetik tuzilish, ritm, epitet, og‘zaki an‘ana, badiiy vositalar, “Qironxon”, xalq adabiyoti, takror, alliteratsiya.

### POETIC STRUCTURE OF THE EPIC “QIRONXON”

Annotation

The epic “Qironxon” is an important monument of oral folk literature, reflecting the historical, cultural, and social realities of its time. This study focuses on the analysis of the epic’s poetic structure, including rhythm, stanza organization, the use of epithets, repetitions, alliterations, and other expressive devices. Special attention is given to the interaction between the narrative plot and poetic means, which reveals the specifics of the author’s artistic skill and the tradition of oral storytelling. The study demonstrates that the poetic structure of the epic plays a crucial role in creating emotional expressiveness, enhancing dramatic effect, and shaping national identity through folk creativity.

**Key words:** Epic, poetic structure, rhythm, epithet, oral tradition, literary devices, “Qironxon,” folk literature, repetition, alliteration.

### ПОЭТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ЭПОСА «КИРОНХОН»

Аннотация

Эпос «Киронхон» является важным памятником устной народной литературы, отражающим исторические, культурные и социальные реалии своего времени. Настоящее исследование посвящено анализу поэтической структуры эпоса, включая ритмику, строфическую организацию, использование эпитетов, повторов, аллитераций и других выразительных средств. Особое внимание уделено взаимодействию сюжетной линии с поэтическими средствами, что позволяет выявить специфику художественного мастерства автора и традиции устного повествования. Исследование показывает, что поэтическая структура эпоса играет ключевую роль в создании эмоциональной выразительности, усилении драматического эффекта и формировании национальной идентичности через народное творчество.

**Ключевые слова:** Эпос, поэтическая структура, ритм, эпитет, устная традиция, художественные средства, «Киронхон», народная литература, повтор, аллитерация.

**Kirish.** Poetik til badiiy adabiyotning eng muhim tarkibiy unsurlaridan biri bo‘lib, u asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini estetik jihatdan ta‘sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Poetik tilning asosiy vazifasi nafaqat voqelikni tasvirlash, balki uni obrazli, hissiy va ta‘sirchan shaklda qayta yaratishdan iboratdir. Shu bois poetik tilda ifoda va ifodaviylik kategoriyalari yetakchi o‘rin tutadi. Ifoda tushunchasi badiiy matnda muallif fikrining til vositalari orqali bevosita bayon etilishini anglatadi. U voqea, obraz, holat va kechinmalarning mazmuniy jihatdan aniq, tushunarli va mantiqan izchil ifodalinishini ta‘minlaydi. Poetik ifoda orqali asarda tasvirlanayotgan hodisalarning mohiyati ochib beriladi, muallifning dunyoqarashi va munosabati namoyon bo‘ladi.

Ifodaviylik esa poetik tilning emotsional-estetik ta‘sir kuchi bilan bog‘liq bo‘lib, badiiy vositalar orqali nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ifodaviylik obrazlilik, his-tuyg‘u, ohang va estetik zavq uyg‘otish kabi xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. U til birliklarining oddiy nominativ vazifasidan chiqib, badiiy-estetik ma‘no kasb etishi bilan belgilanadi. Poetik tilda ifodaviylikni yuzaga keltiruvchi

asosiy omillar badiiy vositalar hisoblanadi. Jumladan, metafora, metonimiya, tashbeh, mubolag‘a, personifikatsiya, epitet, takror, parallelizm kabi san‘at vositalari tasvirni jonlantiradi, obrazlar tizimini boyitadi va matnning estetik qiymatini oshiradi. Ushbu vositalar orqali muallif fikri nafaqat aytiladi, balki “his qildiriladi”.

Shuningdek, poetik tilda leksik tanlov, sinonimik qatorlardan foydalanish, arxaizmlar va xalqona iboralar qo‘llanilishi ham ifodaviylikni kuchaytiruvchi muhim omillardandir. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodiga mansub dostonlarda poetik tilning ifodaviy imkoniyatlari keng bo‘lib, unda an‘anaviy epik formulalar, takroriy tasvirlar va ohangdorlik muhim rol o‘ynaydi. Poetik tilning ifoda va ifodaviylik xususiyatlari badiiy asarning mazmuniy va estetik yaxlitligini ta‘minlaydi. Ifoda asarda fikrning aniqligi va mantiqiyiligini belgilasa, ifodaviylik uning badiiy ta‘sirchanligi va emotsional kuchini yuzaga chiqaradi. Ushbu ikki jihatning uyg‘unligi poetik matnning badiiy barkamolligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Badiiy asarda kompozitsiya muhim strukturaviy unsur bo'lib, asar qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi va izchilligini ta'minlaydi. Kompozitsiya badiiy asarga yaxlitlik baxsh etib, voqealar rivojining ketma-ketligini belgilaydi. Klassik adabiyotda keng tarqalgan kompozitsion turlardan biri rivojlanish (o'sish) kompozitsiyasi bo'lib, u voqealar tizimining murakkab va bosqichma-bosqich taraqqiy etishi bilan xarakterlanadi. Syujet esa badiiy asarda tasvirlangan voqealar tizimi bo'lib, harakat va hodisalarning aniq ketma-ketligini ifodalaydi. Syujet orqali obrazlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari va asarning dramatik rivoji ochib beriladi. Mashhur rus yozuvchisi M. Prishvin ta'kidlaganidek, badiiy asarda so'z va iboralar sehrli raqqosalardek harakat qilib, matnga joziba va ta'sirchanlik bag'ishlaydi[1].

Poetik til faqat ko'chma ma'nodagi so'zlar majmuasi bo'lib qolmay, balki turli badiiy vositalar yordamida obraz, manzara va ruhiy holatlarni jonli tasvirlash imkonini beradi. Metafora, tashbeh, epitet, mubolag'a kabi vositalar badiiy nutqning estetik qiymatini oshiradi. Leksik va frazeologik birliklar esa obrazlarning xatti-harakati va ularning o'zaro munosabatlarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Poetik til va badiiy vositalar badiiy asarning ifodaviyligini, estetik ta'sir kuchini va mazmuniy chuqurligini ta'minlaydi. Muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonining uyg'unligi natijasida badiiy matn o'ziga xos uslubiy yaxlitlikka erishadi. Shu jihatdan poetik til badiiy ijodning asosiy tayanchi sifatida muhim ilmiy va estetik ahamiyatga ega.

**Natijalar va Muhokama.** "Qironxon" dostoni poetik tili o'zbek xalq dostonchiligiga xos badiiy-estetik mezonlar asosida shakllangan bo'lib, unda ifoda va ifodaviylik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Doston tilida xalqona obrazlilik, sodda va ravon bayon bilan bir qatorda, chuqur mazmuni ifodalovchi badiiy vositalarning samarali qo'llanilgani kuzatiladi. Poetik til orqali voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri hamda ularning ichki kechinmalari jonli va ta'sirchan tarzda aks ettiriladi. Doston matnida muallif (baxshi) nutqi yetakchi o'rin egallab, u hikoyaviy bayon bilan lirizmni uyg'unlashtiradi. Baxshi voqealarni oddiy xabar berish bilan cheklanmay, o'z munosabatini, hissiy holatini ham til vositalari orqali ifodalaydi. Natijada poetik nutq nafaqat axborot beruvchi, balki kuchli estetik ta'sir ko'rsatuvchi vositaga aylanadi. Ayniqsa, qahramonlarning boshiga tushgan sinovlar, sarguzashtlar va ruhiy kechinmalar tasvirida ifodaviylik yuqori darajada namoyon bo'ladi.

"Qironxon" dostonida epitet, tashbeh, mubolag'a, metafora kabi an'anaviy badiiy vositalar keng qo'llanilgan. Qahramonlarning kuch-qudrati, jasorati va shijoati mubolag'ali tasvirlar orqali bo'rttirib ko'rsatiladi. Bu hol xalq dostonlariga xos bo'lgan ideallashtirish tamoyilining yorqin ifodasidir. Masalan, qahramonning yengilmasligi, uzoq masofalarni qisqa fursatda bosib o'tishi yoki dushman ustidan yolg'iz o'zi g'alaba qozonishi mubolag'a yordamida badiylashtiriladi. Doston tilida xalqona iboralar, frazeologik birliklar va og'zaki nutqqa xos sintaktik qurilmalar keng uchraydi. Bu hol asarning xalq og'zaki ijodiga mansubligini yaqqol ko'rsatadi. Ayniqsa, dialoglarda personajlar nutqining individuallashtirilishi, ularning ijtimoiy mavqei va ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Qahramonlar nutqi sodda, lo'nda va ta'sirchan bo'lib, u tinglovchiga tez yetib boradigan obrazli ifoda vositalariga boydir. Poetik tilning ifodaviyligini kuchaytirishda takrorlar, parallelizm, ritmik sintaktik qurilmalar muhim rol o'ynaydi. Takrorlar voqealarning muhim jihatlarini urg'ulash, tinglovchi e'tiborini jalb etish hamda dostonning ohangdorligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Parallel tuzilmalar esa syujet rivojiga tantanavorlik va epik salobat bag'ishlaydi.

"Qironxon" dostonining poetik tili va unda qo'llanilgan badiiy vositalar asarning ifodaviyligini ta'minlab, xalqona epik tafakkurning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Poetik til yordamida qahramonlik, adolat, sadoqat va mardlik kabi umuminsoniy g'oyalar badiiy jihatdan mukammal ifodalangan bo'lib, dostonning estetik va ma'naviy qiymatini yanada oshiradi.

"Do'rmon mamlakatining podshosi Alixon befarandlikdan aziyat chekib, beklarining maslaxati bilan azizlarni ziyofat qilib, ulug' avliyolardan farzand tilash uchun safarga chiqdilar. Bir uzruqxonada tunaganida Xizr bilan Ilyos tushiga kirib ikki farzand ko'rajagini, o'g'lining otini Qironxon, qizning otini Oqbilak qo'yishini aytdilar. Podshohning amri bilan el orab sovcilikga otlangan Boymuhammad vazir bir loyqali uch opa-singilning suhbatini eshitib qoladi. Xudoyqul podachining kichkina qizi Botako'z tupida Alixon podshoh ko'rsatilishi, unga ikki farzand ko'rish nasib etishi aytiladi. Podshoh sovg'ib Botako'zga uylanadi. Opa-singillar Durdona bilan Holdonaga o'ng otalik, chap otalik vazirlarga uylanadi. Botako'z homilador bo'ladi. Shu vaqt Alixon podshoh "Biram quvongan yomon, biram qo'rqan yomon" deb, Do'rmon yurtining ixtiyorini noiblariga topshirib, kimki ayolim o'g'il tug'sa, shodlik xabarini yetkazsa, istagani beraman, deb va'da qilib, Bog'urko'shga ov-sayd qilishga chiqib ketadi. Alixonning Botako'zdan boshqa yana to'qqiz xotini bor edi. Botako'zning homilador bo'lganidan xafa bo'lib, ikkilashib, Botako'z bilan uning bolalarini yo'q qilishga tushadilar. To'qqiz qaynona Botako'zning ikkila opasini ham chaqirib kelib, ularni ham yo'ldan ozdiradilar. Ular bari maslahatlashib, Holdona bilan Durdonani naqqosh tanachi yovvoyi bir Fotgul maston degan kampirning huzuriga yuboradilar. Ular Botako'zning bo'yniga gul solib ko'chada xor qilib o'ldirishning ilojini qilishni mastondan so'raydilar. Fotgul maston sakkiz la'li tilla evaziga Botako'zning bolalarini yo'q qilib berishga rozi bo'ladi. Botako'z farzand ko'radi va bu habarni yetkazish uchun maston aldov yo'li bilan Alixonga ikkita kuchuk tug'di deb yolg'on gapiradi. Podshohning g'azabi kelib ikki kuchuk va Botako'zni zindonga tashlaydi. Farzandlaridan ayrilgan Botako'z fig'on chekilb turganda Fotimaning ruhi ko'rinib o'n to'rt yildan keyin farzandlari bilan diydor ko'rishishi ayon bo'ladi[2].

Mazkur parcha "Qironxon" dostonining syujet rivojida muhim bo'lgan boshlang'ich voqealarni o'z ichiga oladi va poetik tilning ifoda hamda ifodaviylik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Doston tili xalq og'zaki ijodiga xos ravishda obrazli, ramziy va emotsional jihatdan kuchli bo'lib, voqealar tizimi badiiy vositalar orqali jonlantirilgan. Doston tilida voqealar xalqona sodda bayon bilan berilgan bo'lsa-da, mazmun jihatidan chuqur ramziy qatlamga ega. Masalan, Alixon podshohning befarandlikdan aziyat chekishi epik an'anaga xos boshlang'ich konflikt sifatida tasvirlanadi. Bu holat xalq dostonlarida qahramonning dunyoga kelishidan avvalgi sinov bosqichi sifatida talqin etiladi. "Biram quvongan yomon, biram qo'rqan yomon" kabi iboralar maqolga xos parallelizm asosida qurilgan bo'lib, podshohning ruhiy ikkilanishi va ichki kechinmalarini qisqa, ammo ta'sirchan shaklda ifodalaydi. Bu yerda poetik ifoda muallif munosabatini ham yashirin tarzda ochib beradi.

Xizr va Ilyos obrazlarining tushda ko'rinishi mifologik motiv sifatida xizmat qiladi. Bu holat voqealarga ilohiylik tusini berib, kelajakda tug'ilajak farzandlarning oddiy inson emas, balki taqdir tomonidan tanlangan qahramon ekanini anglatadi. Qironxon va Oqbilak ismlarining oldindan aytilishi esa bashorat (proritsiya) badiiy vositasining qo'llanilganini ko'rsatadi. Shuningdek, Fotgul maston obrazi orqali doston syujetiga yovuzlik timsoli kiritiladi. Maston obrazi folklorida ko'pincha hiyla, makr va zulm bilan bog'lanadi. Uning "sakkiz la'li tilla evaziga" bolalarni yo'q qilishga rozi bo'lishi

mubolag'a va ramziylik orqali yovuzlikning sotqin tabiatini ochib beradi.

Parchada qarama-qarshilik (antiteza) vositasi faol qo'llangan. Bir tomonda – farzand tilab yurgan Alixon va begunoh Botako'z, ikkinchi tomonda – hasadgo'y to'qqiz xotin va maston. Bu qarama-qarshilik dramatik keskinlikni kuchaytirib, o'quvchi (tinglovchi)da adolatga bo'lgan intilishni uyg'otadi. Ikki farzandning kuchuk bilan almashtirilishi motivi esa metonimik va ramziy ma'no kasb etadi. Bu orqali begunohlikning haqoratlanishi, insoniy qadriyatlarining toptalishi ifodalanadi. Botako'zning zindonga tashlanishi va farzandlaridan ayrilgach "fig'on chekishi" holati emotsional-ekspressiv leksika orqali kuchli ta'sir uyg'otadi. Ayniqsa, Fotima ruhi ko'rinib, o'n to'rt yildan so'ng diydor bo'lish bashoratining berilishi tasalli va umid motivini yuzaga chiqaradi. Bu epizod fojaviylik va umid uyg'unligini ta'minlab, dostonning g'oyaviy yo'nalishini mustahkamlaydi.

Ushbu parcha poetik til va badiiy vositalarning uyg'unligi orqali doston syujetining asosiy dramatik tugunini tashkil etadi. Ifoda jihatidan sodda, ammo ifodaviylik nuqtayi nazaridan nihoyatda boy bo'lgan bu epizod xalq dostonlariga xos badiiy tafakkur, ramziylik va estetik ta'sirchanlikni yaqqol aks ettiradi. Poetik til yordamida voqealar nafaqat bayon qilinadi, balki tinglovchi ongida chuqur hissiy kechinmalarni uyg'otadi.

Maston kampiridan olgan tillalari sop bo'lgan Odirboy yana o'tinchilik uchun cho'lga chiqadi va tasodifan o'sha ro'vatga duch keladi. Shu yerdan biror narsa tilab olaymi, deb tilovchi bo'lib ro'vatga boradi va u yerda ikki bolani ko'rib qoladi. Odirboy shu bog'dagi olmalarni bozorga olib borib sotib, puliga bolalarga kiyim-kechak olib kelib beradi. Bir kuni bola Odirboyning xurjunini olma bilan to'ldirib berar ekan, bu olmalarni Do'rmon podshosiga olib borib berib, o'rniga shohning Bujorako'z oti, tilla to'ni, qora tuyg'un qushi va oq chalochin so'rab olishini aytadi. Alixon podsho to'rtta olmani olib, bolalari borligini sezganday bo'ladi va Odirboy so'ragan narsalarni beradi. Boboning iltimosiga binoban Alixon podsho "o'g'lingizning ismi Qironxon, qizingizning Oqbilak bo'lsin" deb bolalarga ot qo'yadi. Bir kun ovda Alixon Qironxon bilan tanishib qoladi va uni saroyga taklif qiladi. Shu tariqa ular do'stlik qurib yaqin bo'la boshlaydilar. Podshohning xotinlari bo'lib, habar topib, Botako'zning bolasi o'lmaganligini bilib qoladilar va Fotigul mastonga uni yo'q qilishni buyuradilar. Fotigul maston palang ot yasaydigan usta Burxon degan bir ustaga buyurtma berib, o'ziga ular ot yasatib oladi. Palang otga minib maston Qironxon bilan uning singlisi Oqbilak oyim yashaydigan gulistonbog'ga boradi. "Men onangman" deb Oqbilakni aldab, ro'vatga kirib, onalik maston kampir fig'ir bilan Qironxonni yo'q qilmoqchi bo'lib, uni Tillaqo'zi degan jaydagi parvoz bozoridan tilla muyassak olib bergani oboradi. Qironxon mashaqqatli sarbozlik sarguzashtlarni boshidan kechirib, Fotigul mastonning Ko'kchashma degan jayda yashaydigan opasi Shapongquloq kampirining yordamida Eram bog'ining podshohi Bahritoj degan podshohning qizi Suchehra pari qo'lida saqlanayotgan tilla muyassakni olib keladi[3].

Mazkur parcha "Qironxon" dostonining syujet jihatdan eng dramatik va badiiy jihatdan sermazmun bo'limlaridan biri bo'lib, unda xalq og'zaki ijodiga xos mifologik tasavvurlar, ramziy obrazlar va kuchli emotsional ifoda mujassamdir. Doston tili sodda, xalqona bo'lishi bilan birga, mazmunan chuqur va ta'sirchan ifodaviylikka ega. Parchada voqealar keskin qarama-qarshiliklar asosida rivojlanadi: hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on. Ushbu qarama-qarshiliklar poetik ifodaning kuchayishiga xizmat qiladi. Masalan, Fotigul mastonning go'daklarni o'ldirishga "ko'zi qiyimasligi" bir tomondan insoniylikning so'nmagan uchqunini ifodalasa, ikkinchi tomondan uning bu ishni boshqa shaxs – Odirboyga topshirishi yovuzlikning bilvosita amalga oshirilishi motivini yuzaga chiqaradi. Bu holat xalq dostonlarida keng tarqalgan axloqiy sinov motivining yorqin namunasidir.

Parchada g'oyibdan kelgan sado, Jabroilning qoraqush qiyofasida paydo bo'lishi, cho'lda gulistonbog'ning vujudga kelishi kabi motivlar kuchli mifologik va diniy ifodaviylikka ega. Bu obrazlar: xudoning adolatli hukmini, begunoh go'daklarning ilohiy himoya ostida ekanini, ezgulikning oxir-oqibat g'alaba qozonishini ramziy tarzda ifodalaydi[4].

Ayniqsa, Jabroilning qoraqush bo'lib bolalarga soya solishi — himoya va rahmat timsoli, cho'l bag'rida guliston paydo bo'lishi esa hayotning mo'jizaviy tiklanishi ifodasidir. Kiyikning Xudoga nola qilib aytgan so'zlari doston tilida kuchli emotsional-ifodaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu yerda qarg'ish: "Otasi, onasi men kabi zor-zor yig'lasin" kabi ifodalar orqali xalqona adolat tushunchasi badiylashtiriladi. Ushbu epizod syujetda keyingi fojaviy voqealarning sababiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Parchada "zor-zor yig'lab", "dod-faryod", "Xudoning amri bilan", "tasodifan duch keladi" kabi iboralar xalq og'zaki nutqiga xos bo'lib, dostonning jonli, tabiiy va ishonarli ifodaviylikni ta'minlaydi. Bu iboralar tinglovchi yoki o'quvchining hissiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Dostonda uchraydigan Bujorako'z ot, qora tuyg'un, oq chalochin, tilla muyassak kabi predmetlar oddiy buyum emas, balki: qahramonlik, nasl-nasab, shohona qudrat, sinov va mukofot ramzlari sifatida poetik ifodaviylikni kuchaytiradi. Ayniqsa, Qironxonning tilla muyassakni qo'lga kiritish jarayoni uning yetilayotgan qahramon sifatida shakllanayotganini ifodalaydi. Qironxonning sarbozlik sarguzashtlari, Fotigul mastonning hiyla-nayranglari, Shapongquloq kampir va Suchehra pari obrazlari orqali voqealar epik dramatism asosida tasvirlanadi. Bu holat dostonning ifodaviylikni yanada oshirib, uni tinglovchi uchun qiziqarli va ta'sirchan qiladi. "Qironxon" dostonining poetik tili va ifodaviy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Unda xalqona ifoda, mifologik obrazlar, ramziy predmetlar va kuchli emotsional tasvirlar uyg'unlashib, dostonning badiiy-estetik qiymatini oshiradi. Ifoda va ifodaviylik vositalari orqali ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, ilohiy adolat va qahramonlik g'oyasi badiiy jihatdan mukammal tarzda ochib berilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Рещетикова А.П. Фонд сюжетных мотивов и музыка в этнографическом контексте: АКД. –М.: 2007. –С. 18-19.
2. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Учинчи жилд. Қиронхон достони. Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. –Т: 2015. –Б. 12.
3. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Учинчи жилд. Қиронхон достони. Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. –Т: 2015. –Б. 13.
4. Маматқул Ж. Халқ ижодиёти – бебаҳо қадрият. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетасининг 2013 йил 32-сони.